

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KLASTER MODELINING AHAMIYATI**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi 2-kurs magistranti*

***Abdullayeva Aziza Karimovna***

*Email: [aziza.abdullayeva.1991@mail.ru](mailto:aziza.abdullayeva.1991@mail.ru)*

*Tel: [+998937254212](tel:+998937254212)*

***Annotatsiya.*** *Maqolada ta'lim sifatining samaradorligini ta'minlashda klaster modelining mohiyati ochib berilgan. Ta'lim sifatini oshirish muammosiga doir qarashlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim sifati, ta'lim klasteri, klaster, hamkorlikda ishlash, innovatsion yondashuv, innovatsiyalar, metod, pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar.*

Ma'lumki, ilm-fan va ta'lim bir-biri bilan chambarchas bog'liq bolib, jamiyatning barcha sohalarini yuksalishi va rivojlanishini belgilab beradi. Hech bir davlat o'z kelajagini zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirmasdan qura olmaydi. Shuning uchun fan va texnikadagi innovatsiyalarning yangilarini joriy etish, o'quv jarayonini interaktiv usullar bilan boyitish, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Tanqidiy tahlil shuni ko'rsatadiki, so'nggi chorak asr davomida mamlakatimizda ta'lim tizimida ko'plab muammolar, islohotlarda ma'lum bir kamchiliklar mavjud bo'lib, bunday kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida so'nggi yillar ichida ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlash sohasida qator farmon va qarorlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo'yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Mazkur maqsad ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Shuning uchun fan va ta'limning barcha bosqichlarida jumladan, maktabgacha, maktab va oliy ta'lim tizimlarida islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim va dolzarb vazifadir. Bu o'z-o'zidan innovatsion klasterga eshik ochadi.

“Klaster” so‘zi inglizcha cluster, clustre, clyster so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dasta, dasta, buta, umumiy hovli va uning atrofidagi hovli binolari ma’nosini bildiradi. Bu atama birinchi marta ilmiy foydalanishga Maykl Porter tomonidan kiritilgan.

Klaster - bu ma’lum bir hududda yoki ma’lum bir faoliyat doirasida joylashgan va o‘zaro bog‘langan hamda bir-biriga manfaatdor tashkilotlar, muassasalar, korxonalar yoki boshqa birliklarning to‘plamidir. Klasterlar o‘zaro hamkorlik orqali umumiy maqsadlarni amalga oshirish maqsadida birlashadi va natijada samaradorlik, innovatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

“Ta’lim klasteri” tushunchasi va so‘zi ta’lim tizimida nisbatan yangi bo‘lib, 2000-yillar boshida keng tarqala boshlagan. Ta’lim klasteri konsepti ta’lim muassasalarini birlashtirib, o‘zaro hamkorlik va resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida paydo bo‘lgan. Ta’lim klasterlari ta’lim sifatini oshirish maqsadida rivojlantirilgan. Klasterlashuv orqali ta’lim muassasalari va tashkilotlari o‘zaro hamkorlik qilib, o‘qitish usullari, o‘quv dasturlari va ta’lim infratuzilmasini yaxshilash yo‘llarini izlashlari mumkin.

M. Porter, T.I.Shamova, P.S.Rudneva, A.V. Lagutkin, S.A .Ivanova kabi xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarida klaster va uning mohiyati, bu texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishning muammolari, pedagogik ta’limda innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish bo‘yicha ko‘p ishlar olib borganlar.

Respublikamizda ushbu tizimda xorijiy tajriba asosida G.I.Muxamedov X.E.Sultonov, B.B.Baymetovlarning ilmiy tadqiqotlarida klasterni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish o‘z aksini topgan.

Ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilishda bizga E.I. Chuchkalova va O.G. Mosunovanning ta’lim klasteri – “bir hududda joylashgan ta’lim muassasalari to‘plami, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan gorizont va vertikal ravishda bog‘langan ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat organlari, individual ishtirokchilarning shaxsiy maqsadlariga asoslangan umumiy maqsadga erishish uchun ta’lim sohasida harakat qilish” ta’rifini qabul qilish uchun asos bo‘la oladi.

Klaster muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun quyidagi asosiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish kerak:

- axborot almashinuvi va aloqa;
- manfaatlar muvozanatini saqlash va ziddiyatlarni minimallashtirish;
- tarmoqdagi hamkorlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni shakllantirish;
- qarorlarni tayyorlash;
- umumiy manfaatlarni yaratish va mustahkamlash.

Ta’lim klasterlari ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim klasterlari turli ta’lim muassasalari, o‘quv markazlari va boshqa ta’limga aloqador tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali ta’lim jarayonini yaxshilaydi.

Ta'lim klasterlari turli ta'lim muassasalari va tashkilotlar o'rtasida resurslar va infratuzilmadan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Jumladan, kutubxonalar, laboratoriyalar va o'quv materiallarini birgalikda ishlatish, infratuzilmalar va texnologiyalardan kengroq foydalanish, talabalar va o'qituvchilar uchun zamonaviy ta'lim vositalarini taqdim etish imkonini beradi.

Klasterlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Malaka oshirish seminar va treninglari, o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish, zamonaviy o'quv dasturlari va yondashuvlarni joriy etishga yo'l ochadi.

Ta'lim klasterlari turli ilmiy institutlar va universitetlar o'rtasida ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Qo'shma ilmiy loyihalar va izlanishlar olib borish, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ilmiy maqolalar va konferentsiyalar tashkil qilishga keng sharoit yaratadi.

Klasterlar orqali talabalar uchun kengroq o'qish va rivojlanish imkoniyatlari yaratadi. Turli kurslar va dasturlarda ishtirok etish, amaliyot va stajirovka imkoniyatlari, har xil sohalarda tajriba va ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari beradi.

Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash tizimlarini joriy etish klasterlarning muhim faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini monitoring qilish va baholash, muntazam ravishda ta'lim sifatini baholash va reytinglarni aniqlash, sifatni oshirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqazo etadi.

Ta'lim sifatini oshirish orqali klasterlar mahalliy va global raqobatbardoshlikni oshiradi. Ta'lim muassasalarining reytinglarini oshirish, xalqaro darajadagi ta'lim standartlariga erishish, talabalar va o'qituvchilarni xorij talabalariga mos keladigan eng ilg'or kadrlar sifatida yuksaltirish imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlarni ta'kidlagan holda Oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida klaster modelini namuna sifatida taqdim etamiz.



Ta'lim klasterlari ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular resurslardan samarali foydalanish, malaka oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish va talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratish orqali ta'lim muassasalarining samaradorligi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'zaro hamkorlik va tajriba almashish klasterlar orqali ta'lim muassasalarining ilg'or yondashuvlari, usullar va texnologiyalarni tezda qabul qilish va kengaytirishga yordam beradi.

Talabalarni ish bilan ta'minlash bo'yicha klaster talabalar, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. U talabalar uchun amaliy tajriba, kasbiy rivojlanish va martaba imkoniyatlarini yaratadi hamda ish beruvchilar uchun malakali kadrlar tayyorlashning samarali usulidir. Bu yondashuv mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga yordam beradi va ta'lim tizimini yuksaltirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. Кожухаров М. Анализ и оценка кластерного потенциала в Болгарии. Автореферат доктор. дис. – Ст. Загора: ФрУ, 2018 Портър М. Е. Относително конкуренция. – София, 2004. – 199 с.
3. Чучкалова Е.И., Мосунова О.Г. Кластерный подход в образовательных интеграционных структурах //Вестник учебно-методического объединения по профессионально-педагогическому образованию. – Выпуск 1 (46), Екатеринбург: РГППУ, 2012. – С. 81, 78-84
4. Kozhuharova, G. D., Ivanova, D. T., Kozhuharov, M.T. The educational cluster as a form for implementing innovative policies and practices in education and teacher training. The teacher of the future //Knowledge, vol.13 (2). Ninth international scientific conference, 17-19.06.2016 dures, republic OF Albania, 2016. – С.47-51.
5. Портер М. Международная конкуренция: Конкурентные преимущества стран. М.: Международные отношения, 1993.
6. Porter M., Ketelhohn N., Artiganave A., Kelly J., Krasniqi M., Gi M. T. P., Zhang L. The Massachusetts Higher Education and Knowledge Cluster: The Microeconomics of Competitiveness, USA, Massachusetts Press, 2010. P. 30. EM HIEC – East Midlands Health, *Innovation, Education Cluster* Web Site <http://www.tvhiec.org.uk/> Latest Bulletin Published on *15th April, 2014*.
7. Innovation clusters in France: Innovation Comes First. URL: <http://www.invest-in-france.org/us/why-choose-france/research-and-partnerships-innovation-clusters.htm>)